

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE

*on the theme " **Architecture is the Abode of Time** "which will be held at
Samarkand State Architecture and Construction University*

ERKIN SANOAT ZONALARI VA ULARNING SHAKLLANISH TARIXI

Malikov Ulugbek SamDAQU Arxitektura kafedrası DSc tayanch doktoranti

Malikov Ulug'bek Erkinovich

Annotatsiya: Tadqiqotda O'zbekistonning shaharlaridagi sanoat binolari arxitekturasining shakllanish jarayonlari va rivojlanish bosqichlari haqidagi muammolar ko'rilgan. Sanoat binolari arxitekturasini shakllanishidagi muammolar, ularning loyixaviy takomillashtirish yo'llari, sanoat binolariga qoyiladigan asosiy talablar ochib berilgan va ilmiy loyihaviy asoslar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sanoat binolari va korxonalari, erkin iqtisodiy zonalar, tayyor transport omborlari, konstruktiv yechimlar, texnologik jarayon, texnik talablar.

Kirish. Jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish uchun xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi vaqtda mazkur vazifalarni amalga oshirishda erkin iqtisodiy hududlar yetakchi o'ringa ega.

Shu boisdan dunyoning aksariyat davlatlari, xususan, Xitoy, AQSh, Fransiya, Janubiy Koreya, Meksika, Vengriya, Bolgariya kabi mamlakatlar misolida hududning geografik va boshqa qulayliklaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bugungi kunda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish zaruriyat va an'anaga aylangan. Chunki, bunday hududlarni tashkil etishdan asosiy maqsad mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya hamda boshqaruv tajribasini jalb etish orqali uning sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy sohani rivojlantirish barobarida, zamonaviy bozor infratuzilmalarini tashkil etishdan iboratdir. Arxitektura odamlarning maishiy-turmushi va mehnat jarayonlarini fazoviy jihatdan tashkillashtiradi, shuning uchun binolarning shu funksiyalarga va shunday faoliyatlarga mos kelishi ularning asosiy va birlamchi sifatini belgilab beradi. Binolar funksional xarakteristikalarining turli-tumanligi faqatgina inson va jamiyat ehtiyojlarining murakkabligi hamda xilma-xilligini, joyning tabiiy o'ziga xos jihatlari va ilmiy-texnik rivojini aks ettirishi bilangina belgilanmaydi. Binoning o'z vazifasiga mos kelishi, uning qulayliklari haqidagi tasavvurlar vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgarib boradi, shu sababli binolarning yangi talablarga moslashuvchanlik darajasi ularning eng muhim sifatlaridan biridir. Arxitekturaviy asar nafaqat manfaatdorlikni, balki badiiy go'zallikni ham o'zida mujassamlashtiradi[1]. Arxitektura - bu insonga ta'sir o'tkazishi bo'yicha eng ko'hna va eng ahamiyatli san'at turlaridan biridir. Arxitekturaning shakl-shamoyili inson his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadi, arxitektura inson uchun zarur bo'lgan ham moddiy va ham ma'naviy ehtiyojlarning keng spektrini qoniqtiradi. Arxitekturadagi go'zallik va maqsadga muvofiqlik shakl hosil qilishning yagona jarayonida yaratiladi. Arxitekturaviy asarning maqsadga muvofiqligi nafaqat uning texnik talablarga mos kelishi bilan aniqlanadi, balki u jamiyat tomonidan qo'yilgan vazifalarning butun bir kengligini to'la qonli ziddiyatli hal etishni nazarda tutadi. Shunday ekan biz olib borayotgan tadqiqotimizda ham sanoat binolarining badiiy yechimi, texnik talablarga mosligi aniqlangan.

Asosiy qism. Erkin iqtisodiy hududlar hozirga kelib to'xtovsiz rivojlanmoqda. Rivojlanish oddiydan murakkabga, arzon va tez sotiladigan variantdan ko'p tarmoqli va kapital talab qiluvchiga o'tib bormoqda. Zamonaviy jahon tajribasida 30 ga yaqin erkin iqtisodiy hududlarning turlari mavjud bo'lib, ulardan ko'p ulushga ega bo'lganlar bu bo'xona hududlari, to'lovlar olib tashlangan hududlar, bo'xona erkin hududlari, erkin eksport hududlari, erkin eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish hududlari, erkin ishlab chiqarish hududlari, iqtisodiy barqarorlik hududlari, o'zaro tadbirkorlik hududlari, texnika-iqtisodiy rivojlantirish hududlari, fan-sanoat parklari va boshqalar iqtisodiyotda muhim ahamiyat ega kasb etib kelmoqda.

O'zbekistonda ham iqtisodiyotni yuqori darajada rivojlantirish maqsadida mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va ular faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlar faoliyati 1996-yil 25-aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi. Mamlakatimizda erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirish, ularning faoliyatini kengaytirish oldimizda turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Zero, erkin iqtisodiy hududlar milliy iqtisodiyotni alohda mintaqalar darajasida rivojlantirish bilan birga, ularning jahon iqtisodiyotiga integratsiyasini va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda hamda boshqa bir qator dolzarb masalalarning ijobiy hal etilishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 – yillar davomida rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilgan va ushbu strategiya beshta ustuvor yo'nalishdan iborat. Mazkur beshta yo'nalish bosqichma – bosqich amalga oshiriladi va har bir bosqichi bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi[2]. Harakatlar strategiyasining to'rtinchi bosqichi ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoya va sog'ligini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin – qizlarning ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish, arzon uy – joylar barpo etish, yo'l – transport, muhandislik – kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm – fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishni nazarda tutadi.

Arxitektura qadimdan ma'lum bo'lib, funksional vazifalarga xizmat qilishdan tashqari, jamiyatda mavjud g'oyalarni tashkil ettirishga, davlat va jamoat ehtiyojlarini qondirishga intilgan. Bu o'rinda bobokalonimiz Sohibqiron Amir Temurning “Bizning qudratimizdan shubhang bo'lsa, biz yaratgan binolarga boq”, –degan mashhur so'zlarini eslatish kifoya[3]. Yoki Samarqanddagi Registon maydoniga tashrif buyurgan har bir kimsa, kim bo'lishidan qat'iy nazar, osmono'par minora va koshinkor peshtoqlarga tikilganida, hayolidan mazkur obidalarini qurgan me'mor va ustalarning iste'dodi va mahorati, ularni qurishga buyurgan hukmdorlarning qudrati to'g'risidagi fikrlar o'tishi shubhasizdir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng boshqa sohalarda bo'lgani kabi me'morlikda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi.

Mustaqillikka erishilgandan keyin tarixda birinchi marotaba 1995 yilda “Arxitektura va shaharsozlik” bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Bu qonun zahirida mustaqilligimizning dastlabki yillaridan boshlab oshqah sohalari kabi arxitektura va shaharshozligimizga yuksak etibor deb bilaman. Shu boisdan ham shahar aholi punktlari yaqin joylarda sanoat binolarini loyihalash, aholini ish bilan ta'minlashga katta etibor qaratildi. Shaharlarda har xil sanoat binolarini qurish, loyihalash, atrof muhitga moslashtirish tajribalari amalga oshirila boshlandi[4].

Sanoat binolari va inshootlarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanishda ularga bir qancha iqtisodiy talablar qo'yilib, ularni qurishga kam mablag' sarflab, ularni arzon, tejamli qilib loyihalash zarurdir. Shu maqsadda, loyihalashda oldindan bir necha variantda reja va konstruktiv yechimlar ishlab chiqilib, ularni solishtirgandan so'ng eng arzon va foydalisi olinadi. Bino va inshootlarning narxlariga ularning joylashish o'rni, mahalliy qurilish buyumlaridan ularni qurishda samarali foydalanish imkoniyatlarini, transport xizmatlariga ketadigan harajatlar singari omillar ta'sir qiladi[5]. Bulardan tashqari industrial, har tomonlama mexanizatsiyalashgan usullar bilan yig'ma qurilmalardan binolarni qurish bino narxlarini kamaytirishga va ulardan foydalanish davrida kam chiqimli bo'lishga olib keladi. Bu o'rinda loyihalashda kompyuterlarni ishlatish va ularni yordamida samarali loyihalar takomillashtirildi.

Arxitekturaviy va badiiy loyihalashga binoning ichki va tashqi ko'rinishi, pardozi ishlari hamda binolarni ahamiyatiga ko'ra tashqi va ichki tuzilishlari odamlarning estetik talablariga javob bera olishi tushiniladi. Bu talablarga ko'ra yirik sanoat arxitektura ansambli majmua qurilishi ko'zga yaxshi tashlanuvchi bo'lishi kerak.



Kichik sanoat hududining arxitekturaviy yechimi

Har qanday sanoat binolarining hajmiy-tarhiy, loyihaviy yechimlari binoda joylashgan texnologik jarayon harakteriga bog'liq bo'ladi[6]. Texnologik jarayon ishlab chiqarish–texnologik sxemasiga asosan aniqlanib, unda ma'lum bir ketma–ket tayyor mahsulotni tayyorlashda ko'zda tutilgan dastgoh va ularning joylashish harakteri, ichki ko'tarma transport jihozlari ko'rinishi va yuk ko'tarish qobiliyati, nomenklaturasi, xonalar o'lchami (katta–kichikligi) va ketma–ket joylashganligi, ichki harorat, namlik darajasi va boshqalarga bog'liq bo'ladi. Texnologik sxema xom materiallarning kelib tushish joylari, ishlab chiqarish chiqindilarini tashlash, muhandislik tarmoqlarini joylashtirish va o'tkazish joylarini ko'rsatadi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda texnologik sxema avtomat yo'llarining joylashishi va buyumlarga ishlov berish va uni yig'ishdagi turli xildagi operastiyalar bajarilishini ko'zda tutadi. Korxona bosh rejasida bino va inshootlarning o'zaro joylashishi, ular orasidagi masofalar va boshqalar butun korxona texnologik sxemasi uzviy bog'langan bo'ladi.

Sanoat binolari va inshootlarini loyihalashda to'rtta asosiy masala birgalikda hal qilinadi: 1. Muvofiqligiga ko'ra ko'zda tutilgan texnologik jarayonga ko'proq javob beruvchi bino va inshootlar hajmiy-tarhiy sxemasini yaratish. 2. Muhandislik–konstruktiv yechimlari – hozirgi zamon qurilish materiallari va konstruksiyalarini ko'plab bino va inshootlarni talab darajasida mustahkamlik va ustuvorligini ta'minlash. 3. Arxitektura–badiiylik darajasi–bino va inshootlarning va butun korxona ansamblining arxitekturaviy ko'rinishi birgalikda badiiylik talablariga javob berishi. 4. Iqtisodiy masalada–bino va inshootlarni qurish va ishlatish chog'ida chiqimlari minimal miqdorda bo'lishi kerak.



Urgut erkin iqtisodiy zonasidagi tikuchilik korxonasining umumiy ko'rinishi.

Muvofiqlik talablari –bu binoni o'z vazifasiga mos, muvofiq kelishi va bino ichida texnologik dastgohlarni qulay joylashishi, binoni ekspluatatsiya talablariga javob berishi, xizmat muddati, hajmiy-tarhiy yechimlari va boshqalarni o'z ichigi oladi. Binolarga qo'yilgan texnik talablarda esa bino konstruksiyalarining ustuvorligi, uzoq muddat ishlatilishi, yong'inga qarshi chora va tadbirlar hamda binoni industrial usullar bilan qurish tushuniladi. Arxitektura badiiylik talabiga ko'ra, bino chiroyli, hashamatli ko'rinishga ega bo'lishi va shu bilan birgalikda kishilar talab ehtiyojlarini to'la qondirishi tushiniladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki har qanday sanoat binolari vaqt o'tishi bilan talab va taklifga qarab ishlab chiqarish salohiyatini oshirib boradi va shu bilan birga moshlashuvchanlik talablarini ham chetda qoldirmaydi.

Sanoat hududlarining hozirgi kundagi rivojlanish ko'lamiga ko'ra binolarni nisbatan ishlab chiqarish texnologiyasini o'zgartirishga oson moslashadigan yoki arxitektura – qurilish qismini o'zgartirmasdan ichiga har xil ishlab chiqarishni joylashtirishni ta'minlaydigan binolarni ishlatish qulay hisoblanadi. Bunday binolarni nomini universal yoki moslashuvchan deb ataladi. O'zbekistonning sanoatlashgan hududlarida hozirgi kunda bunday komplekslar keyingi o'rinlarda "Erkin iqtisodiy zonalar" deb yuritilib, ularning arxitekturaviy badiiy qiyofasi takomillashtirilib, shaharsozlik tizimidagi oz o'rini mustahkamlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xujamkulov D.Y. Erkin iqtisodiy hududlar. Darslik. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 408 b.
2. S. Sayfiddinov, Sanoat va fuqaro binolari arxitekturasi. Toshkent. 2021.
3. Sindarovich, U. A., & Erkinovich, M. U. (2021). The architecture of the historical palaces of uzbekistan and ways of using them for modern purposes. World Bulletin of Management and Law, 3, 31-33.
4. U Malikov., Hamrayev, S. (2023). O'zbekiston shaharsozligida tarixiy va zamonaviy shaharlarning badiiy uzviyligi. Евразийский журнал академических исследований, 3(1 Part 4), 85-89.

5. U Malikov., Shodiyeva, M. (2022). Ўзбекистон тарихий шаҳарларида энг қадимги ва илк ўрта аср саройларининг шаклланиши ва ривожланиш эволюцияси. Евразийский журнал академических исследований, 2(6), 243-247
6. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны: Учеб. пособие. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – С. 17.